

INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'RGANUVCHILARNING O'QISH KOMPETENSIYASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Yusupova Nilufar Azamatjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

+998909948363

nilufaryusupova3012@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda o'qish kompetensiyasining nazariy asoslari hamda uning EFL talabalari til o'rganish jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining ilmiy talqinlari asosida o'qish kompetensiyasining kognitiv, metakognitiv va affektiv komponentlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari o'qish kompetensiyasini shakllantirishda strategik va kommunikativ yondashuvning muhimligini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *o'qish kompetensiyasi, kompetensiya, kompetentlik, EFL, reading literacy, kognitiv jarayonlar, metakognitiv strategiyalar, kommunikativ yondashuv, CEFR, PISA, lingvistik bilim, nutq malakasi.*

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yimoqda. O'qish kompetensiyasi haqida so'z yuritishdan oldin kompetensiya va kompetentlik haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim.

Kompetensiya — bu shaxsning ma'lum bir faoliyat sohasida samarali harakat qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va qadriyatlarning integratsiyalashgan majmui. Bu tushuncha 1960–70-yillarda pedagogika va lingvodidaktikada faol qo'llanila boshlagan.

Kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari lingvistika va ta'lim tadqiqotlarida turlicha talqin qilinadi. Chomsky⁷ kompetensiyani til tizimini bilish qobiliyati sifatida izohlagan bo'lsa, Messick⁸ uni shaxsning ma'lum fan sohasida nimani bilishi va nimalarni qila olishi bilan bog'laydi. Nemis pedagogik an'analarda esa kompetensiya o'rganish jarayonida shakllanadigan va kontekstga bog'liq bo'lgan dispozitsiya sifatida talqin qilinadi⁹. Muhimi, kompetensiya bevosita kuzatilmaydigan latent konstrukt hisoblanadi va u faqat ijro orqali namoyon bo'ladi. Shu bois kompetensiyani empirik o'rganish jarayonida namoyishga ta'sir qiluvchi motivatsiya, bilim darajasi hamda vaziyat omillarini hisobga olish zarur. Kompetensiya- u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik hisoblanadi.. Jamol Jalolovning "Chet til o'qitish metodikasi" kitobida kompetensiya- (lot. competentia-competo — intilaman); til kompetensiyasi (-tilga layoqat, til bilishga yaroqlilik, lisoniy (-nutqiy) iqtidor, saviya)¹⁰ kabi ma'nolari berilgan va uning 16ga yaqin izohlari turli xil manbalarda keltirib o'tilgan.

O'zbek o'quvchilari va talabalari til tajribasi — muayyan ma'noda til mahorati va til kompetensiyasi tushunchalariga yaqin bo'lib — ona tili, ikkinchi til va chet til tajribalaridan tashkil topadi. Mazkur tajriba lingvistik bilimlar, til ko'nikmalari hamda nutq malakalari kabi

⁷ Chomsky, N. (1965). Aspects of the theory of syntax. Cambridge, MA: MIT Press. P-4.

⁸ Messick, S. (1984). The psychology of educational measurement. *Journal of Educational Measurement*, 21(3), 215–237. <https://doi.org/10.1111/j.1745-3984.1984.tb01030.x>

⁹ Klieme, E., Hartig, J., & Rauch, D. (2008). *The concept of competence in educational contexts*. In J. Hartig, E. Klieme, & D. Leutner (Eds.), *Assessment of competencies in educational contexts* (pp. 3–22). Hogrefe & Huber Publishers.

¹⁰ Jamol Jalolov., Chet tili o'qitish metodikasi (2012) "O'qituvchi" NMIU, 2012. -395-bet

tarkibiy komponentlarni o'z ichiga oladi.¹¹ Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'qish kompetensiyasi shaxsning yozma matnni tushunish, talqin qilish, baholash hamda undan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilimni oddiy o'zlashtirishdan ko'ra, uni real kommunikativ vaziyatda qo'llashni ustuvor deb hisoblaydi.¹² Shu nuqtai nazaridan, o'qish kompetensiyasi faqat dekodlash yoki so'zlarni o'qish emas, balki kognitiv, metakognitiv va affektiv jarayonlarni o'z ichiga oluvchi murakkab integrativ tizimdir.

CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) hujjatida o'qish til faoliyatining retseptiv turi sifatida ko'rib chiqilib, u umumiy mazmunni tushunish, asosiy g'oyani aniqlash, aniq ma'lumotni topish, batafsil tushunish hamda inferensiya qilish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.¹³ CEFRga ko'ra, o'quvchi matn bilan faol ishlay olishi, uning kommunikativ maqsadini anglay olishi va kontekstga mos ravishda talqin qila olishi zarur. Bu esa o'qish kompetensiyasining kommunikativ yo'nalganligini ko'rsatadi. PISA tadqiqotlarida o'qish kompetensiyasi "reading literacy" termini orqali ifodalanadi va u matnni tushunish, undan foydalanish, uni baholash hamda mazmun ustida fikr yuritish qobiliyati sifatida talqin etiladi.¹⁴ Ushbu yondashuv o'qish jarayonini ijtimoiy va funksional kontekst bilan bog'laydi. Demak, o'qish kompetensiyasi nafaqat lingvistik bilim, balki tanqidiy fikrlash va refleksiv tahlil elementlarini ham o'z ichiga oladi.

Nazariy jihatdan o'qish kompetensiyasining shakllanishi kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Goodman (1967) o'qishni "psixolingvistik taxmin jarayoni" sifatida tavsiflaydi, ya'ni o'quvchi matnni o'qish davomida mavjud bilimlariga tayangan holda ma'no yaratadi. Shuningdek, Rumelhart (1977) tomonidan ilgari surilgan interaktiv modelga ko'ra, o'qish jarayonida pastdan-yuqoriga (bottom-up) va yuqoridan-pastga (top-down) strategiyalar birgalikda ishlaydi. Bu model o'qish kompetensiyasining ko'p qatlamli va dinamik xususiyatini asoslaydi.

Metakognitiv yondashuv nuqtai nazaridan, o'qish kompetensiyasi o'quvchining o'z tushunish jarayonini nazorat qila olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Flavell (1979) metakognitsiyani shaxsning o'z bilish jarayonlari ustidan nazorati sifatida izohlaydi. O'qish jarayonida bu strategiyalarni tanlash, tushunishni tekshirish va zarur hollarda qayta o'qish orqali namoyon bo'ladi. Demak, o'qish kompetensiyasi faqat lingvistik bilim emas, balki strategik boshqaruv jarayonidir.

Chet til o'qitish metodikasida o'qish kompetensiyasi lingvistik bilimlar (leksik va grammatik), nutq malakalari hamda til ko'nikmalarining o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadi. Jalolov¹⁵ til tajribasi lingvistik bilim, til ko'nikmalari va nutq malakalari komponentlaridan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Shu asosda aytish mumkinki, o'qish kompetensiyasi ham mazkur komponentlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi.

EFL talabalarning o'qish jarayoni ko'pincha lug'aviy cheklanishlar bilan murakkablashadi. So'z boyligining yetarli emasligi matn mazmunini to'liq anglashga to'sqinlik qilishi mumkin. Biroq zamonaviy psixolingvistik yondashuvlar o'qish jarayonini

¹¹ Jalolov, J. J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi. 369-bet

¹² Klieme, E., Hartig, J., & Rauch, D. (2008). The concept of competence in educational contexts. In J. Hartig et al. (Eds.), *Assessment of competencies in educational contexts* (pp. 3–22)

¹³ Council of Europe. (2020). *Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume*. Council of Europe Publishing. <https://www.coe.int/lang-cefr>

¹⁴ OECD. (2019). *PISA 2018 assessment and analytical framework*. OECD Publishing. P-28/
<https://doi.org/10.1787/b25efab8-en>

¹⁵ Jalolov, J. J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi. 369-bet

faqat so'zlarni dekodlash emas, balki faol ma'no yaratish jarayoni sifatida talqin qiladi.¹⁶ Bu jarayonda talabalar mavjud bilimlari, kontekstual taxminlari va strategiyalaridan foydalanadilar. Demak, EFL sharoitida o'qish kompetensiyasi kognitiv strategiyalar bilan chambarchas bog'liq.

Interaktiv modelga ko'ra, o'qish jarayonida pastdan-yuqoriga (bottom-up) va yuqoridan-pastga (top-down) jarayonlar bir vaqtning o'zida ishlaydi.¹⁷ EFL talabalar ko'pincha bottom-up strategiyalarga haddan ortiq tayanadilar, ya'ni har bir so'zni alohida tarjima qilishga intiladilar. Bu esa o'qish tezligini pasaytiradi va umumiy mazmunni tushunishni qiyinlashtiradi. Samarali o'qish kompetensiyasini shakllantirish uchun talabalarni skimming, scanning va inferensiya kabi strategiyalardan foydalanishga o'rgatish zarur.

Shuningdek, affektiv omillar — motivatsiya, qiziqish va ishonch — EFL talabalarining o'qish kompetensiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi matn mazmunini shaxsiy tajribasi bilan bog'lay olsa, tushunish darajasi oshadi. Shu bois ta'lim jarayonida mavzuga mos, kommunikativ va autentik matnlardan foydalanish tavsiya etiladi.

CEFR hujjatida o'qish kompetensiyasi retseptiv faoliyat sifatida ko'rib chiqilib, o'quvchining turli janrdagi matnlarni tushunish va talqin qilish qobiliyatiga e'tibor qaratiladi.¹⁸ EFL talabalar uchun bu deskriptorlar bosqichma-bosqich rivojlanish modelini taqdim etadi. Masalan, B2 darajada talaba murakkab matnlarning asosiy g'oyasini tushunishi, muallif pozitsiyasini aniqlashi va yashirin ma'nolarni chiqarishi kerak. Xulosa qilib aytganda, o'qish kompetensiyasi ko'p komponentli tizim bo'lib, u lingvistik bilimlar, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda affektiv omillarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv o'qishni faqat texnik ko'nikma sifatida emas, balki kommunikativ va ijtimoiy faoliyat sifatida talqin qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida o'qish kompetensiyasini shakllantirish o'quvchining mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va axborot bilan samarali ishlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the theory of syntax*. MIT Press.
2. Council of Europe. (2001). *Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment*. Cambridge University Press.
3. Council of Europe. (2020). *Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume*. Council of Europe Publishing.
4. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
5. Goodman, K. S. (1967). Reading: A psycholinguistic guessing game. *Journal of the Reading Specialist*, 6(4), 126–135.
6. Grabe, W. (2009). *Reading in a second language: Moving from theory to practice*. Cambridge University Press.
7. Jalolov, J. J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
8. Klieme, E., Hartig, J., & Rauch, D. (2008). The concept of competence in educational contexts. In J. Hartig, E. Klieme, & D. Leutner (Eds.), *Assessment of competencies in educational contexts* (pp. 3–22). Hogrefe.

¹⁶ Goodman, K. S. (1967). Reading: A psycholinguistic guessing game. *Journal of the Reading Specialist*, 6(4), 126–135.

¹⁷ Rumelhart, D. E. (1977). Toward an interactive model of reading. In S. Dornic (Ed.), *Attention and performance VI* (pp. 573–603). Erlbaum.

¹⁸ Council of Europe. (2020). *Common European framework of reference for languages: Companion volume*. Council of Europe Publishing.

9. Messick, S. (1984). The psychology of educational measurement. *Journal of Educational Measurement*, 21(3), 215–237.
10. OECD. (2019). *PISA 2018 assessment and analytical framework*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/b25efab8-en>
11. Rumelhart, D. E. (1977). Toward an interactive model of reading. In S. Dornic (Ed.), *Attention and performance VI* (pp. 573–603). Erlbaum.